

## YOSH AVLODGA EKOLOGIK BILIMLAR BERISHDA XALQ TARBIYASHUNOSLIGINING O‘RNI VA AHAMIYATI

**Sunnatova Gulruh Sherali qizi**

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”  
(maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yosh avlodga ekologik bilimlar berishda xalq tarbiyasining o‘rni va ahamiyati haqida so‘z boradi

**Kalit so‘zlar.** Xalq tarbiyashunosligi, ekologiya, bilim, ekologik bilim, qadriyat, yosh avlod, ekologik tarbiya, afsona, rivoyat, o‘simlik, tabiat, hayvon.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о роли и значении государственного образования в обеспечении экологических знаний подрастающего поколения.

**Ключевые слова.** Народное воспитание, экология, знание, экологическое знание, ценность, молодое поколение, экологическое образование, миф, нарратив, растение, природа, животное.

### ANNOTATION

This article talks about the role and importance of public education in providing environmental knowledge to the young generation.

**Keywords.** Folk education, ecology, knowledge, ecological knowledge, value, young generation, ecological education, myth, narrative, plant, nature, animal.

Yoshlarga ekologik ta’lim – tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng foydalanishimiz, zarur ekologik bilimlarni berishda afsonalar, rivoyatlar, xalq udumlari, maqol, metal, tabiat bayramlaridan misollar keltirib hayotga bog‘lab berilsa, bolalar, maktab o‘quvchi yoshlarni ongiga yaxshiroq yetib boradi.

Bolalarga tabiatdan oqilona foydalanish, tabiat hodisalari va jarayonlarini o‘rgatish, muayyan ekologik bilim ko‘nikma va ma’lumotlar tizimi bilan tanishtirish xalq tarbiyashunosligida ilmiy nazariy va amaliy jihatdan asoslangan. Yaratilgan xalq tajribasi–yosh avlodga ekologik bilim va tarbiya berishning asosidir. Dono o‘zbek xalqining ko‘p ming yillik tarixi, barqaror shakllangan urf–odati, boy milliy–madaniy merosiga tayanish va foydalanish davr talabidir.

Hozirgi talim muassasalari oldida turgan dolzarb mavzulardan biri, ta'lim va tarbiya mazmunini milliy lashtirishdir. Xo'sh ekologik tarbiyani amalga oshirishda milliy poydevor mavjudmi? – degan savolga, hech ikkilanmasdan ha, mavjud– deya javob berishga ishonchli manbalar bor.

Xalq tarbiyashunosligi deganda, oddiy mehnatkash xalq yaratgan va avloddan–avlodga o'tib kelayotgan, tarbiya borasidagi qarashlar, g'oyalari, tajribalar, urf–odat va an'analarning majmuasi tushuniladi.

Shu boisdan o'zbek xalqi yaratgan manbalarda bolalarni ekologik tarbiyalash to'g'risidagi qarashlarni tahlil qilib, muayyan nazariy va amaliy xulosalarga kelinib, ilmiy pedagogika nuqtai nazaridan ularni tartibga solib, asoslab ijtimoiy hayotga tadbiiq etish muhim vazifadir. Bu narsa, eng avvalo, otalar, o'qituvchi–tarbiyachilar va keng jamoatchilik tomonidan xalq pedagogikasi manbalaridan amaliy pedagogik faoliyatlarida keng qo'llash imkonini beradi.

O'zbek xalq tarbiyashunosligida ekologik tarbiyaga alohida e'tibor berilib kelingan. Ota–bobolarimiz zilol suvni, buloqlarni, so'lim daraxtzorlarni, qoya–toshlarni, xosiyatli o't–o'lanlarni, gul–giyoxlarni muqaddas bilib asrashga, niyati nopok kishilardan saqlashga, toptamaslikka, oyoq osti qilmaslikka alohida e'tibor berib kelganlar. Xalq nopok kishilar haqida shunday iboralar qo'llagan: «Daraxt ko'r qilgur», «Moling sutdan qolsin», «parranda ursin (qarg'ish)», «Suvga tupurma ko'zing ko'r bo'ladi» kabi naqlar ham bekorga aytilmagan.

Ota–bobolarimiz o'z farzandlarini tabiatga mehr–muxabbat ruhida tarbiya qilganlar. Beziyon bo'lgan oddiy qurt–qumursqani ham o'ldirish gunoh deb ularning qulog'iga qo'yganlar. Tabiat shunday yaratilganki, har bir jonzot, havo olayotgan o'simlikdan tortib jonzot–u, odamzot bir–biriga uzviy zanjir qilib yaratilgan. O'simliklar havodan karbonat angdridni yutib, bizga kislorodga aylantirib beradi. Qurt–qumursqalar esa yerdagi hayvonlarning go'nglari bilan oziqlanib, tuproqni tozalab beradi. Agar tabiatdagi birgina qurt–qumursqalar bo'lmaganida edi yer yuzi hayvonlarning go'ngi ya'ni tezagi bilan to'lib ketgan bo'lar edi. Shuning uchun biz har bitta jonzotga u xoh yaxshi bo'lsin xoh yomon bo'lsin biz uni o'ldirishimiz, tutib qiynoqlashimiz noo'rin.

«Til zaboni yo'q, jonivorlarga ozor berma gunoh bo'ladi!», «Sigir– oilaning bozori», «Tovuq yetti xazinaning biri», «Kuy bor uyda baraka bor» singari hikmatli naqlar to'qilgan.

Xalq tarbiyashunosligidagi ajoyib odatlardan yana biri suvning tozaligini saqlash va e'zozlashdir. Ota–bobolarimiz suvning bir tomchisini ham nobud qilmaslikka intilganlar. Har qanday oqar suvni «yetti dumalasa halol» deb hisoblashar, «Suvga tupurma, majrux bo'ladi» degan naql qadimdan meros bo'lib kelgan. Suvga tuflash, unga mag'zava va chiqindilarni oqizish, turli xas, cho'p va

axlatlarni tashlash katta gunox hisoblangan. Suv–hayot demakdir. Suv bor joyda odam yashnaydi, o‘t-o‘lan, ekin tekin, gul-daraxtlar gurkirab o‘sadi. Qurt qumursqadan tortib odam va hayvonlargacha suvdan baxramand bo‘ladilar. Suvning qadriga yetmaslik, uni isrof qilish, avaylab ishlatmaslik qanchalik og‘ir oqibatlariga, tabiatdagi muvozanatning buzilishiga olib kelishini bolalarga uqtirib kelishgan.

Xalqimiz qadim zamonlardan suvga e‘tiqod qo‘yib, yozning jazirama kunlarida «Suv sayli» o‘tkazgan. Ota–bobolarimiz «Suv–tabiat in’omi, hayot manbai» deb bejiz aytishmagan. Har bir tomchi suvni gavhardek qadrlab, bog‘–rog‘lar yaratishgan.

Biroq bugungi kunga kelib biz suvni juda ko‘p isrof qilib yuboryapmiz. Oddiygina ertalab o‘rnimizda turgandan so‘ng yuz, qo‘llarimizni hamda tishimizni yuvish uchun suvni ochib qo‘yib, ishlatamiz. Vaholanki, stakanga olib ozroq tishlarimizni yuvib bo‘lgunimizcha suvni bekorga sarflamaslikni iloji borku. Yoki bo‘lmasa oddiygina gilam yuvish uchun uy sharoitida tonnalab suvni sarflab yuborishimizni misol qilishimiz mumkin.

Biz suvni ko‘p ekanligidan o‘ylamay, tejamasdan ishlatamiz, vaholanki Afrika davlatida yashayotgan insonlar bir qultum suvga zor ekanligi xayolimizni bir chetiga ham kelmaydi. Agar biz bu obi hayot hisoblanmish suvni ertaga yoki indinga umuman o‘chib qolayotgandek tasavvur qilib ishlatsak, o‘ylaymizki suvni ancha tejab qolgan hamda isrof qilmagan bo‘lar edik.

Xalq tarbiyashunosligidagi bolalarning ekologik ta’lim–tarbiyasi haqidagi g‘oyalar «Avesto»da yer, suv, zamin, xona, badan, kiyim-kechak, oziq–ovqatlarni toza tutish va saqlashga alohida e‘tibor berilgan. Unda go‘ristonlarni shahar va qishloqlardan yiroqda tashkil etish, uni o‘rab qo‘yish, inson yoki hayvon o‘ligi tushgan soy, ariq, hovuz, quduqlarni bir necha marta suvga to‘ldirib bo‘shatish, yomg‘ir suvi bilan yuvish ta’kidlangan.

Bolalar yosh paytidanoq daraxt ko‘chati o‘tkazish, uy – ro‘zg‘or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug‘ullanishga o‘rgatilishi shart hisoblangan. Yerni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzgan shaxslar «400 qamchi urish jazosi» bilan javobgarlikka tortilgan. «Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov umuman, dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir» – deb e‘tirof etilgan g‘oyasi targ‘ib qilingan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da oila gigenasi, atrof muxitni, aholi yashaydigan joylarni toza tutish, ko‘cha hovli, suv havzalari, ariq va chashmalarni iflos qilmaslik haqida maxsus boblar mavjud. Chunonchi, ko‘cha eshigi yoniga axlat to‘plab qo‘ygan xonadon sohibiga jamoaning roziligi bilan 25 darra, hovuz va chashmadan nopok ko‘za yoki chelakda suv olgan shaxsga 5 darra urilgan.«Avesto»da yaxshilik kuchlari insonlarni yuksak fazilatlariga asoslanib jismoniy, axloqiy, aqliy, tabiatni himoya qilish, kabi go‘zallikka doir juda ko‘p muammolar mujassamlashgan.

«Avesto»da yer, tuproq, o‘simliklarni, hayvonlarni muqaddas bilib ta’riflanganki, hozirgi kundagi ushbu ta’riflar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Yerni qanday parvarishlash, sug‘orish ishlarini yo‘lga qo‘yish cho‘llarni bog‘-u rog‘larga aylantirish chorva mollarni asrash, ularni ko‘paytirish, ayniqsa, chorvachilikning tuyachilik, qo‘ychilik, yilqichilik sohalarini rivojlantirish tabiatni asrashda muhim ahamiyat kasb etishi ta’riflangan. Agar kimdir chorvaning ko‘payishiga sabab bo‘lsa bog‘-u bo‘stonlar ko‘payishiga sabab bo‘lsa Axura Mazdaning xurmatiga sazovor bo‘ladi deyilgan. Unda aytilishicha, tabiatning bir butunligini saqlovchi hayvonlarni e‘zozlash zarurligi aytilgan.

Bu xususida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar", 55-moddasida esa "Yer osti boyliklari, suv, o‘simlik, va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" deyilgan.

Hayvonlarni qadrlash, ularga sig‘inish hozirgi kunga qadar saqlanib qolingan. Masalan, hayvonlarning terisini muqaddas bilib devorga ilib qo‘yish yoki bo‘lmasa, ayiq bo‘rilarning tishlari yoki tirnoqlarini asrab tumor qilib ta‘qib yurish, yana Hindistonda sigir muqaddas hisoblanishi bular yaqqol misol bo‘la oladi.

Donishmandlik durdonasi hisoblangan Muqaddas diniy kitobimiz «Qur‘oni Karim» va Hadislarda ham ekologik tarbiya xususida qimmatbaho hayotiy g‘oyalar bayon qilingan. Masalan: «Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni tangri do‘zaxga maxkum etur», deb insonlarni qo‘rqitish orqali tabiatga zarar keltirmaslik, daraxtlarni avaylab–asrashga, parvarish qilishga, daraxt ekishga, daraxt soyasi orqali issiqlikdan, himoyalaniishi, mevasidan baxramand bo‘lib yurishlarini, insonga ma‘naviy va iqtisodiy tamondan ozuqa berishlarini e‘tirof etish bilan birga, uni noo‘rin kesib tashlaganlarni do‘zaxga maxkum etish bilan jazolanishi etirof etilgan.

Yana «Dehqonchilik bilan shug‘ullaninglar, dehqonchilik muborak kasbdir. Unga qo‘riqchilarni ko‘paytiranglar» deyish bilan halol mehnat samarasini ko‘rish zarurligi uqtiriladi. «Qaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt o‘tqazsa, so‘ng mevasidan qush yoki hayvon yesa uning ekinidan yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi» – deyilgan hadis misolida bag‘rikenglik, jonzotlarni asrash zarurligi, insonlarni mehnat qilishga, mehnat qilish orqali o‘z turmushlari to‘q, faravon, mazmunli, fayzli bo‘lishlarini e‘tirof etilsa, ikkinchi tomondan yerlardan bexuda foydalanmaslik, yomon ekanligi, dehqonchiliklarni asraydigan, muxofaza qiladigan, qadriga yetadigan, mehnat qiladigan insonlarni ko‘paytirish g‘oyasi maqsad qilinib ularning mukofotlanishi aytilgan.

«Ekmoq niyatida qo‘lingizga ko‘chat tutqazgan paytda nohosdan qiyomat qoyil bo‘lishi aniq bo‘lganda ham ulgursangiz, uni ekib qo‘yaving», «Kim suv

toshqinini to‘xtatsa yoki yong‘inni o‘chirsa, unga shahidlik ajri beriladi», kabi hadislarda ekologiya va tabiat muhofazasiga oid tushunchalar bordir. Bunday hadislardan tarbiya jarayonida foydalanilsa, bolalarda milliy ekologik qadriyatlarga hurmat hissi shakllanadi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlar shundan dalolat berib turibdiki, ota – bobolarimiz azal–azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko‘rsatishgan. Yurtni obod etishgan, ko‘chalarni, hovlilarni sarishta saqlashgan. Xalqimizning tabiatga munosabati, uni qadrlash oyoq osti qilmaslik, to‘g‘ri kelgan joyga axlat va chiqindilarni tashlamaslik kabilarga qat‘iy amal qilib kelishgan. Mazkur ekologiyaga oid an‘ana, urf–odat va qadriyatlarni takomillashtirish bugungi ta‘lim–tarbiya muassasalari, va keng jamoatchilikning eng asosiy vazifalaridan biridir.

O‘qituvchi-tarbiyachilar bolalarga ekologik ta‘lim va tarbiya berishida xalqimizning o‘ziga xos milliy tarbiyasidan o‘rinli foydalanishi yaxshi samara beradi. Milliy tarbiyamizda to‘rt narsa–yer, suv, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. O‘zbek xalqining qadriyatlari orasida tabiatni saqlash, qadriga yetish, chiroyiga chiroy, ko‘rkiga ko‘rk qo‘shish birqancha manbalarda aks ettirilgan. Jumladan, bular xalq og‘zaki ijodi namunalari, ya‘ni topishmoq ertak, maqol, qo‘shiq, doston, tez aytish, bayram sayillari, folklor o‘yinlari, marosimlari va boshqa xalq ijodi manbalari qudratli tarbiya vositasi hisoblangan.

Xalq pedagogikasining bu manbalarida tabiat va inson uyg‘unlashuvi muammolari, tabiat va tarixni e‘zozlash, saqlash va qadrlashning ahamiyati, hayvonlar dunyosi, qushlar olami hamda dov–daraxtlar, o‘simliklar va giyohlarni asrab avaylash yoritilgan. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yosh avlodga ekologik bilimlar berishda avvalo, tabiatni ham joni mavjudligi, uni asrash, avaylash haqida suhbatlar o‘tkazishimiz zarur. Suhbatlarni mustahkamlash uchun esa ekskursiyalar, sayrlar, tabiat quchog‘idagi mehnatlarning o‘rni beqiyos deb hisoblaymiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)**

1. “Atrof muhit va biz”.- T.: “TALQIN NASHRIYOTI”, 2003.
2. Hikmatullayev H, Mansurov.A . Axloq odobga oid hadis namunalari.- T.: “FAN”, 1990.
3. Ismoilov A, Axadov R. Ekologik ta‘lim-tarbiya.-T.: “O‘qituvchi”, 1997.
4. Mamadinova N, Ahmedova M. Atrofimizdagi olam.-T.: “O‘ZBEKISTON”, 2016.
5. Qodirova F.R, Qayumova M.N. Maktabgacha pedagogika.-T.: “Tafakkur nashriyoti”, 2019.
6. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika.-T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2013.
7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: 2012.- 50-55 moddalar.

8. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
9. [www.mchs.gov](http://www.mchs.gov)